

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**



SHARQ TILLARI
(Fors tili)

FANI BO'YICHA

SILLABUS

Bilim sohasi:	200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 – Filologiya va tillar o'qitish (o'zbek tili)

Toshkent – 2023

Fan/modul kodi ShT11-210		Fan/modul turi majburiy		Ta'lim tili o'zbek		Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024				
Semestr	Har bir semestrdagi fan/modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
				Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy	laboratoriya		
1	Sharq tillari (Fors tili)	5	4	150	0	0	60	0	90	150
2	Sharq tillari (Fors tili)	5	4	150	0	0	60	0	90	150
	Jami:	10	8	300	0	0	120	0	180	300

Fan maqsadi (FM)

Fanning maqsadi – talabalarga “Sharq tillari” (Fors tili)ning nazariy asoslari, ularning asosiy grammatik kategoriyalarini o'rgatish, ilmiy va pedagogik faoliyati jarayonida mazkur fandan foydalanish imkoniyatlarini oshirish hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili (HO'AT16-411)
2. O'zbek adabiyoti tarixi (O'AT13-515)

Ta'lim natijalari (TN)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

“Sharq tillari” (Fors tili) fanini o'rganish orqali arab-fors yozuvining o'ziga xos xususiyatlari va fors tilining asosiy grammatik kategoriyalarini o'zlashtirish bilan bir qatorda eski o'zbek yozuviga oid bilimlarini ham yanada mustahkamlaydi. Shu bilan birgalikda mazkur fanni puxta egallash natijasida matnshunoslik, manbashunoslik, xattotlik, tarix, arxeologiya, o'zbek tilining tarixiy grammatikasi, o'zbek tili tarixi va qadimgi turkiy tilga oid bilim va ko'nikmalarini boyitadi. Ma'naviy merosimiz hisoblangan qo'lyozma va toshbosma manbalarni o'qish, tahlil qilish hamda tadqiq etish ko'nikmalari shakllanadi va hozirgi o'zbek adabiy tilida uchraydigan forsiy o'zlashmalarni ilmiy tahlil qilish salohiyatiga ega bo'lish bilan birga fanga daxldor bo'lgan nazariy hamda amaliy bilimlar haqida *tasavvur va bilimga ega bo'ladi*;

Arabiy yozuvda yozish va o'qiy olish, ijtimoiy mavzularda suhbatlasha olish, gazeta va jurnallarni mutolaa qilish, manbalar bilan ishlash, o'lyozmalarni o'qish, o'zbek tilidagi forsiy o'zlashmalarni tahlil qila olish, ilmiy axborotlar bilan ishlash, ilmiy faoliyatlari jarayonida zarur bo'lgan asliy manbalardagi kerakli axborotlardan foydalanish **ko'nikmaga ega bo'ladi.**

"Sharq tillari" (Fors tili) faniga oid grammatik kategoriyalar, arab yozuvi va uning xususiyatlari, maishiy mavzularda suhbatlasha olish, OAVlaridagi ma'lumotlar bilan tanisha olish kabi **umumiy kompetensiyalar** bilan bir qatorda qo'lyozma va toshbosma manbalar bilan ishlash, kataloglardan foydalanish, asliytdagi ilmiy manbalarni tushuna olish, o'zbek tiliga o'zlashgan so'z va so'z birikmalarini tahlil qila olish kabi **kasbiy kompetensiyalarga ega bo'ladi.**

Talabalarning kreditlarni olish tartibi

VII. Talabalarning kreditlarni olish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan Sharq tillari (Fors tili) fanidan I semestr 60 soay amaliy mashg'ulot va 90 soay mustaqil ta'lim hamda II semestr uchun 60 soat amaliy mashg'ulot va 900 soat mustaqil ta'lim mashg'uloti o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan talabag I semestr uchun 5 kredit va II semestr uchun 5 kredit beriladi.

Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi.

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

Talabalarning bilimini baholash mezonlari:

Oraliq nazorat: o'tilgan mavzular asosida yozma shaklda o'tkaziladi.

Har bir talabaga bir savolnoma tarkibida beshtadan savol beriladi va har bir javob maksimal 1 (bir) balldan baholanadi. Savolnomadagi bitta savol nazariy, qolgan to'rtta savol amaliy tarzda belgilanadi.

Yakuniy nazorat: semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha og'zaki shaklda o'tkaziladi.

Har bir talabaga bir savolnoma tarkibida uchtdan savol beriladi va har bir javob maksimal 30 (o'ttiz) balldan baholanadi. Savolnomadagi bitta savol nazariy, qolgan ikkita savol amaliy tarzda belgilanadi. Har bir talaba uchun 3 (uch) daqiqa vaqt ajratiladi.

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini

tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: o'tilgan mavzular asosida yozma shaklda o'tkaziladi.

Har bir talabaga bir savolnoma tarkibida beshtadan savol beriladi va har bir javob maksimal 1 (bir) balldan baholanadi. Savolnomadagi bitta savol nazariy, qolgan to'rtta savol amaliy tarzda belgilanadi.

Oraliq nazorat shaklining baholash mezonlari:

1 – SONLI YOZMA ORALIQ SAVOLNOMASI	
1.	Arab yozuvining o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot bering.
2.	Berilgan so'zlarni arab yozuvida fors tiliga tarjima qiling. <i>Qalam, universitet, yozuvchi, qiyin, qishloq xo'jaligi</i>
3.	Berilgan so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling. <i>کشور - خیابان - دانشکده - همسایه - دانش آموز</i>
4.	Berilgan jummalarni fors tiliga tarjima qiling. <i>Men birinchi kurs talabasiman. O'zbekiston respublikasining poytaxti Toshkent shahri. Men bu kitobni o'qidim.</i>
5.	Berilgan jummalarni o'zbek tiliga tarjima qiling. <i>دیروز روز تعطیل بود. من ساعت شش از خواب بیدار شدم. فوراً دست و روی خود را شستم. بعد با حوله صورتم (رویم) را خشک کردم و لباسم را پوشیدم.</i>

Oraliq nazoratning baholash mezonlari:

Savolnomadagi har bir savol uchun umumiy baholash mezonlari:

talaba mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritgan bo'lsa, olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llay olgan bo'lsa, imloviy xatolarga yo'l qo'ymagan bo'lsa, yozuvi me'yor talablari darajasida bo'lsa, misollarni yozishga ijodiy yondashgan bo'lsa 1 (bir) ball bilan baholanadi;

talaba mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritgan bo'lsa, olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llay olgan bo'lsa, yozuvi me'yor talablari darajasida bo'lsa, ammo 1 tadan 2 tagacha imloviy xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa, yoki misollarni

yozishga ijodiy yondashmagan bo'lsa 0.9 (nol butun o'ndan to'qqiz) ball bilan baholanadi;

talaba mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritgan bo'lsa, olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llay olgan bo'lsa, ammo 1 tadan 2 tagacha imloviy xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa, 1 tadan 2 tagacha orfografik xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa, yoki misollarni yozishga ijodiy yondashmagan bo'lsa 0.8 (nol butun o'ndan sakkiz) ball bilan baholanadi;

talaba mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritgan bo'lsa, olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llay olgan bo'lsa, ammo 2 tadan 4 tagacha imloviy xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa, 2 tadan 4 tagacha orfografik xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa, yoki misollarni yozishga ijodiy yondashmagan bo'lsa 0.7 (nol butun o'ndan yetti) ball bilan baholanadi;

talaba mavzu yuzasidan to'liq ma'lumotga ega bo'lmagan bo'lsa, olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llay olmagan bo'lsa, 2 tadan 4 tagacha imloviy xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa, 2 tadan 4 tagacha orfografik xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa, yoki misollarni yozishga ijodiy yondashmagan bo'lsa 0.6 (nol butun o'ndan olti) ball bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat: semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha og'zaki shaklda o'tkaziladi.

Har bir talabaga bir savolnoma tarkibida uchtdan savol beriladi va har bir javob maksimal 30 (o'ttiz) balldan baholanadi. Savolnomadagi bitta savol nazariy, qolgan ikkita savol amaliy tarzda belgilanadi. Har bir talaba uchun 3 (uch) daqiqa vaqt ajratiladi.

Yakuniy nazorat shaklining baholash mezonlari:

1 – Yakuniy savolnoma

1 – topshiriq. Asosiy, izofali va murakkab predloglar haqida ma'lumot bering.

2 – topshiriq. Berilgan jummalarni fors tiliga tarjima qiling.

Men kitob o'qiyapman. U maktub yozayapti. Navbatchi lug'at keltrdi.

Ahmad qo'lini yuvayapti. Men nonushta qilayapman.

3 – topshiriq. Berilgan jummalarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

اهل خانواده ی ما هر روز ساعت شش صبح از خواب بیدار می شوند.
فقط مادرم و خواهر بزرگم زودتر بیدار می شوند. آنها برای ما صبحانه آماده می کنند.

Savolnomadagi har bir savol uchun umumiy baholash mezonlari:

talaba nazariy mavzularni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa, so'z va so'z birikmalarini tarjima qilish va talaffuz qilish chog'ida xatolarga yo'l qo'ymagan bo'lsa, izofalarni to'g'ri ishlata olsa, nazariy mavzuga oid misollarni topishda ijodkorlikka amal qilgan bo'lsa, tarjimalarni benuqson bajargan bo'lsa, jumlar uslubi jihatdan to'g'ri tarjima qilingan bo'lsa, javobning mukammalligiga qarab 27 balldan 30 ballgacha baholanadi;

talaba nazariy mavzularni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa, so'z va so'z birikmalarini tarjima qilish va talaffuz qilish chog'ida ikkitagacha xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa, izofalarni to'g'ri ishlata olsa, nazariy mavzuga oid misollarni topishda ijodkorlikka amal qilgan bo'lsa, tarjimalarni benuqson bajargan bo'lsa, jumalarning ba'zilari uslubiy jihatdan g'aliz tarjima qilingan bo'lsa, kamchiliklar me'yoriga ko'ra 21 balldan 27 ballgacha baholanadi;

talaba nazariy mavzularni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa, so'z va so'z birikmalarini tarjima qilish va talaffuz qilish chog'ida to'rttagacha xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa, ammo izofalarni to'g'ri ishlata olsa, nazariy mavzuga oid misollarni topishda ijodkorlikka amal qilmagan bo'lsa, tarjimalarni kamchiliklar bilan bajargan bo'lsa, ba'zi bir jumalar uslubiy jihatdan to'g'ri tarjima qilinmagan bo'lsa, bunday holda 18 balldan 21 ballgacha baholanadi;

talaba nazariy mavzularni to'liq o'zlashtirmagan bo'lsa, so'z va so'z birikmalarini tarjima qilish va talaffuz qilish chog'ida to'rttadan ortiq xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa, izofalarni to'g'ri ishlata olmasa, nazariy mavzuga oid misollarni topishda ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan bo'lsa, tarjimalarni noto'g'ri bajargan bo'lsa, jumalar uslubiy jihatdan noto'g'ri tarjima qilingan bo'lsa, nuqsonlarga ko'ra 0 balldan 17 ballgacha baholanadi;

Izoh: Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

Fan mazmuni		Soat
Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulot (A) (1-semestr)		60
A1	Fors tili haqida umumiy ma'lumot.	4
A2	Arab-fors alifbosida munfasil harflar.	4
A3	Arab-fors alifbosida muttasil harflar.	4
A4	Fors tilining ba'zi fonetik xususiyatlari.	4
A5	Fors tilidagi qisqa va cho'ziq unlilarning ifodalanishi.	4
A6	Ot kesimli sodda yig'iq gap.	4
A7	So'roq gapning tuzilishi.	4
A8	Bog'lamaning to'liq va qisqa shakllarining tuslanishi.	4
A9	Fors tilida izofa.	4
A10	Fors tilida ko'plik va izofa zanjiri.	4
A11	Fors tilida egalikning ifodalanishi. Miqdor va tartib sonlar.	4
A12	Fors tilida fe'l. O'tgan zamon aniq fe'li.	4
A13	Fors tilida predloglar.	4
A14	Fors tilida predloglar.	4
A15	Matnlar tarjima qilish.	4

Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulot (A) (2-semestr)		60
A1	Hozirgi-kelasi zamon fe'li. Nisbiy sifat.	4
A2	Fors tilida vaqtning ifodalanishi. Payt holi.	4
A3	Fors tilida fe'l mayillari. Buyruq mayli.	4
A4	Hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli.	4
A5	Modal fe'llar va modal so'zlar.	4
A6	Maqsad va to'ldiruvchi ergash gap.	4
A7	O'tgan zamon davom fe'li. Numerativlar.	4
A8	O'tgan zamon sifatdoshi va ravishdoshi.	4
A9	Payt ergash gap.	4
A10	Hozirgi zamon sifatdoshi.	4
A11	O'tgan zamon natijali fe'li.	4
A12	Uzoq o'tgan zamon fe'li. Harakat nomi.	4
A13	Fors tilida sifat. Sifat darajalari.	4
A14	Aniqlovchi ergash gap	4
A15	Sabab ergash gap.	4

Mustaqil ta'lim (MT) (1-semestr)			soat
T/r	Mustaqil ta'lim mavzulari	Mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari va turlari	90
1	Fors tili haqida umumiy ma'lumot.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
2	Arab-fors alifbosida munfasil harflar.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
3	Arab-fors alifbosida muttasil harflar.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
4	Fors tilining ba'zi fonetik xususiyatlari.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
5	Fors tilidagi qisqa va cho'ziq unlilarning ifodalanishi.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
6	Ot kesimli sodda yig'iq gap.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
7	So'roq gapning tuzilishi.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6

8	Bog'lamaning to'liq va qisqa shakllarining tuslanishi.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
9	Fors tilida izofa.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
10	Fors tilida ko'plik va izofa zanjiri.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
11	Fors tilida egalikning ifodalanishi. Miqdor va tartib sonlar.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
12	Fors tilida fe'l. O'tgan zamon aniq fe'li.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
13	Fors tilida predloglar.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
14	Fors tilida predloglar.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
15	Matnlar tarjima qilish.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
Mustaqil ta'lim (MT) (2-semestr)			90
1	Hozirgi-kelasi zamon fe'li. Nisbiy sifat.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
2	Fors tilida vaqtning ifodalanishi. Payt holi.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
3	Fors tilida fe'l mayillari. Buyruq mayli.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
4	Hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
5	Modal fe'llar va modal so'zlar.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
6	Maqsad va to'ldiruvchi ergash gap.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6

7	O'tgan zamon davom fe'li. Numerativlar.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
8	O'tgan zamon sifatdoshi va ravishdoshi.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
9	Payt ergash gap.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
10	Hozirgi zamon sifatdoshi.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
11	O'tgan zamon natijali fe'li.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
12	Uzoq o'tgan zamon fe'li. Harakat nomi.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
13	Fors tilida sifat. Sifat darajalari.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
14	Aniqlovchi ergash gap	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6
15	Sabab ergash gap.	Mavzuning nazariy va amaliy qismlari yuzasidan referat tayyorlash.	6

Asosiy adabiyotlar	
1.	Abdusamadov M. Fors tili. –T.: Sharq, 2007 y.
2.	Anousha Shahsavari, Blake Atwood, Persian of Iran today. An introductory course, Volume 1,2. Texas, 2015 y.
3.	Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М., 2001 г.
Qo'shimcha adabiyotlar	
1.	Quronbekov A., Vohidov A., Ziyayeva T. Fors tili. –T., 2009 y.
2.	Ovchinnikova I.K., Ivanov V.B. Uchebnik persidskogo yazika. - M., 2002 y.
3.	Forscha - o'zbekcha o'quv lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1988 y.
4.	O'zbek tilining fors-tojikcha o'zlashmalar lug'ati. Farg'ona. 2022 y.

Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

Muallif:	Alisher G'oziyev, katta o'qituvchi
E-mail:	alishergoziyev7@gmail.com alisher.goziyev@mail.ru
Tashkilot:	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "Xorijiy tillar" kafedrası
Taqrizchilar:	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent H.Turdiyeva Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent U.Mahmudov

Mazkur Sillabus universitet o'quv-uslubiy Kengashining 2023 yil 28 avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "Xorijiy tillar" kafedrasining 2023 yil 25 avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

V.Nazarov

Fakultet dekani

B.Abdushukurov

Kafedra mudiri

N. Rashidova

Tuzuvchi

A.G'oziyev